

3. Accardi, J. Winning closing arguments with narrative metaphor / J. Accardi // The Prosecutor. – 1999. – P. 12-34.

## **METAFORIK TASVIR YARATISHDA TAQLID SO'ZLAR**

*Jaloliddin YODGOROV*  
*IIV Akademiyasi o'qituvchisi*

***Annotatsiya:** Maqolada onomatopik so'zlarning she'riy matndagi lingvopoetik xususiyatlari to'g'risida fikr yuritiladi. Xususan, bu lisoniy birliklarning ovozli makonni leksikalashtirishdagi lingvistik imkoniyati borasida so'z boradi. Bu vaziyatda shoirning taqlid so'zlardan poetik yasama sifatida matn yaratishdagi ijodiy holati ahamiyatlidir. Yaratilgan yangi taqlid birligining o'quvchi ongidagi tasvir yaratish ko'lami to'g'risida ham munosabat bildiriladi. Zero, har qanday til birligida, aynan taqlid so'zlarda o'sha etnosning u yoki bu jihati ko'rinib turadi.*

She'riy matnning o'ziga xos xususiyatlaridan biri band (barcha lirik o'lchovlar nazarda tutilyapti) bo'ylab grammatik va semantik aloqalari ta'minlangan lingvistik birliklarning murakkab chambarchas aloqada ekanligi, ya'ni matniy yaxlitligidir. Bunda ular (til birliklari) bir-birini taqozo etish bilan umumiy tarzda badiiy tasvirni yaratadi hamda badiiy matn rakursida ijodkor tomonidan tasvirni mukammallashtirishga qaratilgan lisoniy birlik atrofida jiplashadi. Natijada, "...ijtimoiy ong vakillari (xalq, etnik, ijtimoiy guruh) tomonidan qabul qilingan varianti shu ijtimoiy guruhning til normasini tashkil qiladi"<sup>115</sup>. Xususan, o'quvchi taqlid so'zning me'yor sifatida qabul qilingan varianti orqali lirik banddan anglanayotgan axborotni empirik faraz mahsuli sifatida qiyinchiliksiz o'zlashtiradi va bu vaziyatda unga tajriba natijasida "arxiv"lashtirilgan tafakkur uzvlari asos bo'ladi. Darhaqiqat, "Forobiy bilishni muhr bilan mumga o'xshatadi, ya'ni muhr mumga bosilib, unda o'z izini qoldirganidek, insondan tashqarida bo'lgan buyum, hodisalar ham uning sezgi a'zolariga ta'sir etib, miyasida o'z nusxa, obraz, suratlarini qoldiradi"<sup>116</sup>.

*Uyg'on, quyosh o'ynar yuzingda,  
Bugungi tong shunchalar go'zal.*

<sup>115</sup> Бушуй Т., Сафаров Ш. Тил қурилиши: таҳлил методлари ва методологияси. – Тошкент: Фан, 2007. – Б. 23.

<sup>116</sup> Облоқулов С. Тафаккур ва тил тарихидан. – Тошкент: Ўзбекистон, 1969. – Б. 18-19.

*Lovullaydi shafaqlar yal-yal,*

*Nechun xayol qotmish ko'zingda.* (A.Oripov. Yillar armoni).

Lirik parchaning umumiy tasviri tabiat voqeligini qamragan bo'lib, ijodkor bu tasvirni ma'lum bir jism qismlari(yuzingda, ko'zingda)ni qo'llash natijasida badiiy-estetik vaziyat yaratgan. Zero, bu mukammallikni yanada yorqin tasavvurga erishishida taqlid so'z (*yal-yal*)ning lingvistik-emotiv ta'siri yuqori hisoblanadi, shuningdek, taqlidda fonetik va genetik ustuvorliklar mavjudki, u umumiy matnning lisoniy birliklari bilan paradigmatic, sintagmatic aloqaga kirishadi hamda turli variant (*lov-lov, yalt-yalt*)larga o'zgarib matnga semantik muvofiqlashgan holda (*Alvon qo'shiqday lov-lov yonadi nihol gilos* (Zulfiya), *Mana menman, falaklarga lov-lov o't qo'yib* (U.Nosir), *Ikki ko'zim yalt-yult etib, ko'kimdan* (Cho'lpon) badiiy-estetik ma'no anglatadi.

Darvoqe, *yal-yal* til birligi grammatik vazifasiga ko'ra taqlid so'zdan yasalgan fe'l (*lovullaydi*)ning intensiv tasvirini kuchaytirgan. Bu, birinchidan, ushbu taqlid so'z (*yal-yal*)ning til egasining ichki leksikasiga mos tarzda tanlanganligi, ya'ni til egalari o'rtasida bu taqlid so'zning o'zgarimas "harakati"ni; ikkinchidan, ijodkor va o'quvchi tasvvuridagi semiotik taxmin (ya'ni, semioz)ning o'zaro mosligini, ya'ni optik tasvirning "mumda qoldirigan muhr izlari" kabi bir xilligini ko'rsatadi. Darhaqiqat, "badiiy adabiyotda, og'zaki nutqda tabiatdagi predmetlarning harakat-holat obrazidagi va ular tovushidagi har-xillilikni ko'rsatish maqsadida ko'pincha juft va takroriy tasviriy so'zlarga murojaat qilin(adi)"<sup>117</sup>ishiga ko'plab misollar (*Yoshlarim yal-yali taraldi tunda...*) aytish mumkin.

Lingvistik tadqiqotlarning kognitiv yondashuvi nuqtayi nazaridan qaralganda lirik matnlar tadqiqotlar uchun formal va konseptual ahamiyat kasb etadi. Lirik matn ijodkori o'zining tasvir strategiyasini shakllantirish va suhbatdoshi (o'quvchi)ga psixolingvistik ta'sir o'tkazishda nutq jarayoniga xos bo'lmagan jihatlar (umumiy-lingvistik me'yordan og'ishlar)dan ham foydalanadi. Zero, bu kabi "og'ish"lar umumtil tabiatiga mos bo'lsa badiiy maqsadga erishiladi yoki aksi bo'lishi mumkin. Agarda dunyoning lingvistik tasvirini badiiy matnda yorqinroq tasvirlashda o'quvchi ong tasviridagi fonetik va vizual

<sup>117</sup> Қўнғуров Р. Ўзбек тилида тасвирий сўзлар. – Тошкент: Фан, 1966. – Б. 88.

algoritmlariga mosligi ta'minlansa, taqlid qilinayotgan obyekt (semioz)ning til egalari tomonidan qabullanishi oson kechadi. Mobodo, badiiy matnda o'quvchi ongining minemonik hududi doirasidan tashqarida yoki tasavvurning lisoniy birliklar bilan shakllanishida qo'llanuvchi turli taqlidiy periferiyali lisoniy birlikli matnlarning badiiy realizatsiyasida (ijodkor va o'quvchi o'rtasida) hissiy qabullash qiyin kechadi. Natijada umumiy nutq va matn tafakkurida g'alizliklarni vujudga kelishiga olib kelishi mumkin:

*Nuragan kallasi, **bilch-bulg'anch** ko'zi,*

*Chayonday nigohi gajak sudralar.* (A. Qutbiddin. Nayson).

To'g'ri, "tilda, ko'pincha, biror narsa tovushini yoki harakat-holat obrazini ifodalash uchun bir necha xil tasviriy so'zlar ishlatiladi. Tasviriy so'zlar sistemasida sinonimlarning paydo bo'lishiga, birinchidan, biror hodisaga turli kishining turlicha taqlid qilishi sabab bo'lsa, ikkinchidan, bir kishining ham o'sha hodisaga turlicha geografik sharoitda turlicha taqlid qilishi sabab bo'ladi"<sup>118</sup>. Vizual hosila tarzda qo'llanayotgan taqlid so'z (*bilch-bulg'anch*) badiiy matn doirasida majburiy tarzda ochilayotgandek ko'rinmoqda. Bu o'quvchining so'z va ohangni his etish salohiyatining madaniy qabullashidagi motivatsiyasi minimum darajaga tushgan hamda onomatopning (onomatop deya olinsa, hozirda bu so'zda bunday status mavjud emas) pragmatik ta'sir etishi past darajada hisoblanadi. Xususan, tasvir obyekti (ko'z)ni izohlayotgan taqlid so'z o'quvchining minemonik "zahira"sig'a begonaligi yoki bu onomatopga teng qiymatli semadan uzoqligi seziladi. Birinchidan, bu taqlid so'z so'z ijodkorning individual til neologizmi sifatida o'zining hissiy qabullashlari va tasvirni metaforik modellashi natijasida (gibridlash tarzda) yasalgan; ikkinchidan, bu lisoniy birlik umumiy uzusda mavjud emas yohud paradigmatic semalarga ega emas; uchinchidan, qo'llangan lisoniy birlik taqlid so'zlarning umumiy yasaliş tizimi qoidalariga zid hisoblanadi. Zero, tilshunos olim R.Qo'ng'urov: "Juft tasviriy so'zlar bir hodisaning turli xil o'zgarib turishini, birgina tovush yoki obrazli harakatning goh kuchayib, goh pasayishi, ba'zan esa goh yaqinlashish, goh uzoqlashish kabi holatlarni ifodalaydi" – deb ta'kidlaydi. Shu ta'rifdan kelib chiqiladigan bo'lsa, bu taqlid so'zning tasvir motivatsiyasi o'ta nisbiy

<sup>118</sup> Кўнғуров Р. Ко'rsatilgan asar. – Б. 44.

hisoblanadi. Masalan, qo'llangan onomatopik so'zning birinchi qismi (*bilch*)dagi tovushning semantik maydonidan aynan bioakustik ma'no va ovoz intensivligi anglashiladi. Shuningdek, bu taqlid so'z asosan takror holllarda qo'llanadi va til egalarning tafakkurida ma'lum bir bio yoki texnogen massa(loy, qor, xamir va shu kabilar)ning ezilishi va bosilishi natijasida sodir bo'lgan tovushni ifodalaydi. taqlid so'zning ikkinchi komponenti faol kommunikatsiyada aynan vizual harakat samarasi sifatida, asosan, *bulg'angan* (sifatdosh) ma'nosida ko'proq ishlatiladi. Ehtimol, ijodkor (A.Qutbiddin) onomatopning birinchi komponentiga hamohang anlaut va auslaut (b-ch = b-ch; C+C) tarzda bu birlikni kreativ tarzda qo'llagan bo'lishi mumkin, lekin semiotik taxminga olingan lingvistik birlikning vokal taqlidi badiiy matnning umumiy nutq va matn tafakkuriga zid kelmasligi kerak. Xususan, *bilch* taqlid so'zini perseptiv tarzda his qilgan o'quvchi tafakkurida shu ovoz bilan bog'liq hotira zahiralari ishga tushadi, biroq *bulg'anch* taqlid so'zi qo'llanganda eshitish bilan bog'liq bo'lgan tasvir keskin vizual tasvirga o'zgarishi kuzatiladi. O'quvchining semiotik tafakkuridagi bu anomal (giperanomal) tasvir badiiy matnning erkin qabullanishida va estetik samara natijasini minimum darajaga tushishiga olib keladi. Shunday ekan, "she'r eng avvalo – garmoniya. U so'zlarni misralarning ohang va o'lchoviga mos yengil va erkin joylashishini talab qiladi. She'riy ravonlik so'zni satrlarga zo'rma-zo'rakisiz, oddiy nutqda qo'llaniladigandek erkin ishlatishni talab qiladi"<sup>119</sup>.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Бушуй Т., Сафаров Ш. Тил қурилиши: таҳлил методлари ва методологияси. – Тошкент: Фан, 2007.
2. Облоқулов С. Тафаккур ва тил тарихидан. – Тошкент: Ўзбекистон, 1969.
3. Қўнғуров Р. Ўзбек тилида тасвирий сўзлар. – Тошкент: Фан, 1966.
4. Масалова В. Синергетика и лингвистика: мода или новая парадигма знания. II Учёные записки Таврического национального университета. Серия "Филология". – Т. 20 (59). №1. 2007.

---

<sup>119</sup> Масалова В. Синергетика и лингвистика: мода или новая парадигма знания. II Учёные записки Таврического национального университета. Серия «Филология». – Т.20 (59). №1. 2007. – С. 12.